



SHAVKAT RAHMON SHE'RLARIDAGI PRETSEDENT BIRLIKLAR TAHLILI

Abdullayeva Mushtariybegim Murodiljon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistri

Bizga ma'lumki, pretsedent birliklar lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tadqiq etiluvchi birliklaridan biri sanaladi. Mazkur birliklarga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida qayd etilishicha tilshunoslikda birinchi bo'lib pretsedent termini XX asrning ikkinchi yarmida Karaulov tomonidan qo'llangan⁷⁴.

So'nggi vaqtlarda tilshunoslikda xalqlarning o'ziga xos madaniyatiga qiziqish tobora ortib bormoqda. Xususan, pretsedent nomlar madaniyatni til orqali o'rganishga imkon beradi. Pretsedent nomlar xalqlar madaniyatida alohida o'rin tutadi, ular milliy o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Bu nomlar – mashhur matnlar yoki vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan nomlar, shuningdek, muayyan sifatlarning namunaviy yig'indisiga ishora qiluvchi ramziy nomlardir. Masalan, Alpomish, Majnun, Suqrot, Hotam, G'irotdan kiradi. Ular badiiy matnda alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'zida millat madaniyatini, uning urf-odat va an'analarini aks ettiribgina qolmay, balki uning ruhiyatini ham ochib beradi. Bunday real birliklar adabiy matnlarda keng qo'llanadi va ular o'quvchi ongida muayyan tarixiy yoki badiiy konnotatsiyalarni uyg'otadi. O'quvchi matnda ma'lum bir nomga duch kelar ekan, shu zahoti ushbu nom bilan bog'liq voqea-hodisalar, shaxslar yoki tarixiy-madaniy manbalarni tasavvur qiladi. Masalan, *Nuh (a.s.)* nomi uzun umr va to'fon voqeasi bilan, *Ya'qub (a.s.)* esa g'am, alam va firoq timsoli bilan bog'lanadi. *Xo'tan* esa kiyiklari bilan mashhur bo'lgan joy sifatida esga tushadi.

O'zbek tilshunosligida ham ushbu leksik birliklarga nisbatan qiziqish uyg'onib so'nggi yillarda bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, D.Xudoyberganovning pretsedent birliklar bo'yicha qilgan izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi. U pretsedent birliklarga quyidagicha ta'rif beradi: "Mashhur matnlar yoki vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan nomlar, shuningdek, muayyan sifatlarning namunaviy yig'indisiga ishora qiluvchi ramziy nomlar pretsedent bo'la oladi"⁷⁵.

Rus tilshunosligida ma'lum til sohiblariga yaxshi tanish bo'lgan, ularning lingvistik xotirasida saqlanadigan hamda nutq faoliyatida qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jumlar va matnlar *pretsedent birliklar* sifatida qabul qilinadi⁷⁶. Ya'ni pretsedent birliklar o'zida mashhurlik va ramziylik xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Pretsedent birlikni yozuvchi yoki shoir o'z asarida gavalantirar ekan uning yuqorida qayd etilgan xususiyatlariga o'z diqqatini qaratadi.

⁷⁴ Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – Б. 79.

⁷⁵ Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрикти. – Тошкент, 2013. – Б. 89.

⁷⁶ Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – Б. 167.



Badiiy adabiyotda ham kishi va joy nomlarini ifodalovchi otlarning belgilar asosida yashirin ma'noda qo'llanilishi keng kuzatilmoda. Bu usul adabiyotshunoslikda asar qahramonining yashirin tuyg'ulari, shaxsiy sifatleri, qaharmonning emotsional munosabatini ifodalash vositasida o'rganilmoqda. Pretsedentlik hodisasi ilk bor psixolingvistika va madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi sohalarida tadqiq etilgan.

V.Maslovaning fikriga ko'ra, muayyan millatga yaxshi tanish bo'lgan matnlar yoki voqealar bilan bog'liq bo'lgan shaxs nomlari pretsedent nomlar deyiladi⁷⁷. Masalan: rus millatida Oblomov, Taras bo'lsa, o'zbek millatida Otabek, Kumush kabilar bor. D.Xudoyberganova lingvokulturologiyaga oid lug'atida biror xalq lingvomadaniyatiga xos bo'lgan, nutqning turli ko'rinishlarida ko'p murojaat qilinadigan mashhur nomlarni "pretsedent nomlar" deydi. Ularga misol qilib Amir Temur, Afrosiyob, Navoiy, Alpomish, Tohir, Zuhra, Nasriddin Afandi, Bog'i Eram kabi o'zbek lingvomadaniyatiga xos bo'lgan nomlarni keltirib o'tadi⁷⁸. Demak, xalqimizda qadimdan e'zozlanib kelinadigan milliy qahramonlarimiz Alpomish-u Barchinlar, buyuk sarkardamiz Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Boburlar ham lingvomadaniy birlik bo'la oladi.

Pretsedent nomlar tarqalish doirasi va miqyosiga ko'ra 2 turga bo'linadi: 1. Milliy pretsedent birliklar. 2. Universal pretsedent birliklar⁷⁹.

Shoir Sh.Rahmon she'rlarida zamondosh shoirlar kabi ozodlik va istiqlool g'oyalarini, xalqning o'z kelajagi yo'lidagi mardonavor kurashini deyarli har bir satrida chuqur ifoda eta olgan ijodkordir. Uning she'rlarida milliy pretsedent birliklar, ayniqsa tarixiy shaxslarga murojaat qilish orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan,

*Zabt etgani kelmadim seni,
yeng ichida yo'qdir pichog'im.
Men Iskandar, Chingizxon emas,
Osmon kabi ochiq quchog'im*⁸⁰.

Ushbu she'rda muallif tarixiy shaxslarga murojaat orqali chuqur ramziy ma'nolarni ifoda etadi. Tarixdan ma'lumki, Iskandar va Chingizxon o'z davrlarida ko'plab davlatlarni bosib olib, ularni vayron qilgan, mahalliy xalqqa jabr-zulm yetkazgan hukmdorlar sifatida tanilgan. Shu bilan birga, shoir lirik qahramonning xarakterini ochishda aynan shu tarixiy dalillardan foydalanib, uning bag'rikenglik va tozalikka intilishini ko'rsatgan. Bu esa she'rga ajoyib kompozitsion go'zallik bag'ishlaydi.

She'rning qolgan qismida lirik qahramonning his-tuyg'ulari, g'azab va vayrongarchilikdan ko'ra, ezgulik va rahm-shafqatga yo'g'rilgani aniq seziladi. Bu qarama-qarshilik orqali muallif inson qalbining murakkabligini, tarixiy voqealar va shaxslar orqali

⁷⁷ Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие. – М.: Академия, 2001. – С. 10.

⁷⁸ Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луга ти. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 31.

⁷⁹ Маслова В.В. Лингвокультурология в система гуманитарного знания / Критика и семиотика. Вып. 4. – 2004. – С. 238-243.

⁸⁰ Rahmon Sh. Saylanma. – Toshkent, 1997. – B. 44.



ifoda etilgan ezgulikni yoritadi. Shunday qilib, she'r o'quvchiga nafaqat tarixiy tafakkur, balki insoniy fazilatlar haqida ham chuqur mulohaza yuritish imkonini beradi.

*Ishonmasang, qara ko'zimga,
ko'zlarimda yashaydir **Hotam**,
men tegmadim hatto ilonga,
u zaharli ilon bo'lsa ham*⁸¹.

Ushbu misradagi Hotam pretsedenti afsonaviy qahramon "Hotami Toy"ga ishora qilyapti. Demak, qahramon o'zida saxovat va shafqat borligini ta'kidlab o'tmoqchi.

Shoir o'zining "Yulduzlar qulagan tunlari" she'rida Yusuf xos Hojibning nomini qo'llaydi:

*Qonimga, qadimgi qonimga baqirdim,
ketaylik moziyga,
ketaylik turkular aytishib,
yashaylik **Yusuf xos Hojibday***⁸².

Shoirning aynan "*qadimgi qoniga baqirish*" tasvirini tanlashi chuqur ma'noga ega. Bu yerda ijodkor kelajak avlodlarga ularning asl kimligini eslatishni, ota-bobolaridan meros bo'lib qolgan sharaflari, qutlug' qon haqida ong uyg'otishni maqsad qilganini ko'rish mumkin. "Qadimgi qon" ifodasi orqali shoir o'tmishdagi ulug' ajdodlarning jasorati, iroda va oliyjanoblighi ta'kidlanadi. Shu qonning ovozi, baqirishi kelajak avlodlarga ruhlantiruvchi, eslatuvchi signal sifatida xizmat qiladi – ular qaysi tomirlardan kelib chiqqanligini va bu sharaflarni saqlab qolish mas'uliyatini unutmasliklari kerakligini bildiradi. Yusuf Xos Hojibning qay tarzda hayot kechirgani esa uning tarjimai holidan ma'lum. Ya'ni uning Qoraxoniylardan bo'lgan Tabg'ach Ulug' Bug'raxon saroyida xizmat qilgani, saroy ishlariga adolat bilan yondashgani, "eshik og'asi" unvoniga ega bo'lgani hamda Qoraxoniylar davri ilm-faniga sezilarli hissa qo'shganini ta'kidlamoqda. Bundan tashqari, uning hikmatlari insonni poklikka, ezgu ishlarni amalga oshirishga, nafsni yengishga qaratilgani sabab muallif xuddi u singari yashashni maqsad qilganini ta'kidlamoqchi.

Yuqorida keltirganimizdek, pretsedent nomlar muayyan til egasi bo'lgan xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, mentaliteti bilan uzviy aloqador bo'lib, ularni namoyon etuvchi birlikdir. Badiiy adabiyotda esa bu mashhur nomlarni qo'llash turli poetik vazifalarni bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987.
2. Худойбергганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент, 2013.
3. Маслова В. А. Лингвокультуроология. Учебное пособие. – М.: Академия, 2001.

⁸¹ Rahmon Sh. Saylanma. – Toshkent, 1997. – B.44.

⁸² Rahmon Sh. Saylanma. – Toshkent, 1997. – B. 103.



4. Худойберганава Д. Лингвокультуроология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015.

5. Маслова В.В. Лингвокультуроология в система гуманитарного знания / Критика и семиотика. Вып. 4.
– 2004.

6. Rahmon Sh. Saylanma. – Toshkent, 1997.

